

SAMARQAND VILOYATI QURILISH SOHASINING AMALDAGI HOLATI VA ISTIQBOLDAGI RIVOJLANISHI

Jumanov Sherzod Norboyevich

SamDAQU

“Biznesni boshqarish” kafedrası mudiri, i.f.f.d., PhD,

ORCID: 0009-0007-8977-0894

E-mail: jumanov.sherzod@samdaq.edu.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolada Samarqand viloyatida qurilish sohasining hozirgi vaziyati va uning rivojlanish tendensiyalari atroflicha tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida hududda olib borilayotgan qurilish ishlari hajmi, turar-joy va ijtimoiy infratuzilma obyektlarining qurilishi, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatining rivojlanish darajasi hamda investitsion faoliyat ko'rsatkichlari o'rganildi. Bundan tashqari, shaharsozlik loyihalari, innovatsion va raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi, eksport salohiyati hamda kelgusidagi rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilindi. Maqola natijalari Samarqand viloyatida qurilish sohasining hudud iqtisodiyotiga ta'siri va barqaror rivojlanishdagi o'rnini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Samarqand viloyati, qurilish sohasi, shaharsozlik, infratuzilma, investitsiyalar, qurilish materiallari, turar-joy qurilishi, innovatsiyalar, iqtisodiy rivojlanish, barqaror o'sish.

Аннотация

В данной статье представлен всесторонний анализ текущего состояния строительной отрасли Самаркандской области и тенденций ее развития. В ходе исследования были изучены объемы строительных работ, выполненных в регионе, строительство объектов жилой и социальной инфраструктуры, уровень развития отрасли строительных материалов и показатели инвестиционной активности. Кроме того, были проанализированы проекты градостроительства, использование инновационных и цифровых технологий, экспортный потенциал и будущие направления развития. Результаты статьи позволяют определить влияние строительной отрасли Самаркандской области на региональную экономику и ее место в устойчивом развитии.

Ключевые слова: Самаркандский регион, строительный сектор, городское развитие, инфраструктура, инвестиции, строительные материалы, жилищное строительство, инновации, экономическое развитие, устойчивый рост.

Abstract

This article presents a comprehensive analysis of the current state of the Samarkand region's construction industry and its development trends. The study examined the volume of construction work completed in the region, the construction of residential and social infrastructure facilities, the level of development of the building materials industry, and investment activity indicators. Urban development projects, the use of innovative and digital technologies, export potential, and future development trends were also analyzed. The article's findings allow us to determine

the impact of the Samarkand region's construction industry on the regional economy and its role in sustainable development.

Keywords: Samarkand region, construction sector, urban development, infrastructure, investment, building materials, housing construction, innovation, economic development, sustainable growth.

KIRISH

Qurilish sohasi har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Aholini zamonaviy uy-joylar bilan ta'minlash, ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish infratuzilmasini rivojlantirish va shahar hamda qishloq muhitini tubdan yangilash jarayonlari to'g'ridan-to'g'ri qurilish faoliyati bilan bog'liqdir. Qurilish sohasining holati mamlakat iqtisodiy barqarorligi va aholi farovonligining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida, xususan, Samarqand viloyatida ham qurilish sektorini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hududda keng ko'lamli shaharsozlik loyihalari amalga oshirilmoqda, zamonaviy turar-joy komplekslari, ijtimoiy soha obyektlari hamda ishlab chiqarish infratuzilmalari bunyod etilmoqda. Davlat dasturlari va investitsion loyihalar doirasida yo'l-transport hamda muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari modernizatsiya qilinib, qurilish jarayonlariga innovatsion va raqamli texnologiyalar tatbiq etilmoqda.

Samarqand viloyatining geografik joylashuvi, boy tarixiy va madaniy merosi hamda iqtisodiy salohiyati qurilish sohasining tez rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Aholi sonining o'sishi, urbanizatsiya jarayonlarining faollashishi va turizm sohasining kengayishi hududda yangi qurilish obyektlariga talabni oshirmoqda. Shu bilan birga, qurilish materiallari ishlab chiqarish bazasining rivojlanishi viloyatda qurilish ishlarini uzluksiz olib borishga xizmat qilmoqda.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi Samarqand viloyatida qurilish sohasining hozirgi holatini tahlil qilish, rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va kelgusidagi istiqbolli yo'nalishlarni yoritishdan iboratdir. Tadqiqot natijalari hududiy rivojlanish strategiyalarini takomillashtirish va qurilish sohasida samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Qurilish sohasining rivojlanishi, uning iqtisodiyotdagi roli va hududiy taraqqiyotga ta'siri masalalari ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan. Ilmiy manbalarda qurilish sohasi nafaqat ishlab chiqarish tarmog'i, balki ijtimoiy infratuzilmani shakllantirishda muhim omil sifatida ta'riflanadi.

Qurilish sohasi iqtisodiyotda sifat va samaradorlikning o'zaro bog'liqligi bo'yicha olimlar Deming E., Krosbi F., Feygenbaum A., Djuran Dj., Monden Ya., Glichesv A.V., Lapidus V.A. ishlanmalarida chuqur o'rganilgan va sifatni boshqarish konsepsiyasining nazariy asoslari shakllantirilgan. Shu bilan birga, qurilish ishlarining sifatini tadqiq qilishga Monfred Yu.B., Buzirev V.V., Zaruyeva L.V., Mazanik N.T., Smirnova I., Lukmanova I.G., Nejnikova Ye.V., Bayburin A.X. kabi olimlarning izlanishlari bag'ishlangan.

E. Demingning mazkur asari zamonaviy menejment nazariyasida sifatni strategik ustuvorlik sifatida talqin etadi. Muallif tizimli fikrlash, jarayonlarni statistik nazorat qilish, doimiy takomillashtirish (PDCA sikli) hamda rahbariyat mas'uliyatini sifatni ta'minlashning asosiy omili sifatida ko'rsatadi[3].

Monfred tomonidan qurilish ishlab chiqarishida mahsulot sifati tushunchasining asosiy qoidalari ishlab chiqilgan. Muallif qurilish mahsuloti sifatiga ta'sir etuvchi texnik, tashkiliy va texnologik omillarni tahlil qiladi[4]. I.X. Davletov qurilish iqtisodiyotining nazariy va amaliy jihatlarini kompleks tarzda yoritadi. Darslikda qurilish korxonalari faoliyatini iqtisodiy baholash, resurslardan samarali foydalanish, investitsiya loyihalarini moliyaviy tahlil qilish masalalari ko'rib chiqilgan [5].

Hojiahmedov G'. va boshqalar sifat menejmentining xalqaro standartlari, xususan ISO 9000 seriyasi talablarini milliy amaliyot bilan uyg'unlashtirgan holda bayon qiladi. Asarda sifat siyosati, sifatni rejalashtirish, ichki audit, sertifikatlashtirish jarayonlari atroflicha tahlil etilgan [6].

Kambarov J.X. va boshqa mualliflar raqamli transformatsiya sharoitida sifatni boshqarish, risk-menejment, jarayonli yondashuv hamda mijozga yo'naltirilganlik prinsiplarini tahlil qiladilar. Asar amaliyotga yo'naltirilgan keyslar va tahliliy modellar bilan boyitilgan [7].

Miraxmedov M. va boshqalar qo'llanmasida urilish majmuasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini yoritadi. Mualliflar qurilish jarayonlarini rejalashtirish, logistika, mehnatni tashkil etish va resurslarni muvofiqlashtirish masalalarini tahlil qilganlar [8].

Buriyev X.T., Usmanov I.A., Djabriyev A.N. va boshqalar urilish sohasida sifatni uzluksiz oshirishning ilmiy-nazariy va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqishgan, tashkilot ichidagi o'zgarishlarni boshqarish mexanizmlari va sertifikatsiya jarayonlari, institutsional islohotlar va sifatni boshqarish tizimini joriy etishni tarmoq raqobatbardoshligining asosiy omili sifatida qaraganlar [9-17].

Tahlil qilingan manbalar sifat menejmentining nazariy asoslaridan tortib, qurilish sohasida uni amalga oshirishning amaliy mexanizmlarigacha bo'lgan masalalarni qamrab oladi. Xorijiy manbalar (Deming, Monfred) fundamental nazariy asos yaratadi. Milliy darslik va ilmiy maqolalar esa mazkur konsepsiyalarni O'zbekiston qurilish sohasi sharoitiga moslashtirish, institutsional islohotlar va strategik rivojlanish masalalarini ochib beradi.

METODOLOGIYA

Statistik tahlil metodlari yordamida Samarqand viloyatida qurilish ishlari hajmi, investitsiyalar miqdori, qurilgan turar-joylar maydoni hamda qurilish materiallari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari o'rganildi. Rasmiy statistika ma'lumotlariga tayangan holda dinamik va taqqoslama tahlillar amalga oshirildi hamda sohaning yillar kesimidagi o'sish sur'atlari aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu bo'limda Samarqand viloyatida qurilish sohasining so'nggi yillardagi rivojlanish ko'rsatkichlari rasmiy statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Tahlil

jarayonida qurilish ishlari hajmi, uy-joy qurilishi hajmi, ko'p qavatli uylar soni, ijtimoiy obyektlar qurilishi, qurilish sohasida band aholi, qurilish sohasiga investitsiyalar, mahalliy qurilish materiallari ulushi va energiya tejamkor texnologiyalar ulushi ko'rsatkichlari asosiy baholash mezonlari sifatida qo'llanildi (1-jadval).

1-jadval.

2021-2025-yillarda qurilish sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

Ko'rsatkichlar	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil
Qurilish ishlari hajmi (mlrd so'm)	9800	11600	14500	17200	19500
Uy-joy qurilishi hajmi (ming m ²)	1250	1480	1780	2050	5300
Ko'p qavatli uylar soni (dona)	180	210	260	310	350
Ijtimoiy obyektlar qurilishi (dona)	95	115	140	165	190
Qurilish sohasida band aholi (ming kishi)	68	74	82	90	98
Qurilish sohasiga investitsiyalar (mlrd so'm)	6200	7500	9300	11400	13000
Mahalliy qurilish materiallari ulushi, foizda	62	66	70	76	82
Energiya tejamkor texnologiyalar ulushi, foizda	25	30	38	48	60

Qurilish hajmi yildan-yilga barqaror o'sib bormoqda. Bu hududiy rivojlanish dasturlari va investitsiyalar faollashganidan dalolat beradi. Uy-joy qurilishi aholining ortib borayotgan ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilmoqda, urbanizatsiya jarayoni jadallashmoqda. Ko'p qavatli uylar sonining ko'payishi yer resurslaridan samarali foydalanish imkonini bermoqda. Ijtimoiy infratuzilmaning kengayishi ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlari sifatini oshirmoqda. Sohada bandlikning oshishi yangi ish o'rinlari yaratilayotganini va qurilish tarmog'ining iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirayotganini ko'rsatadi. Investitsiyalar hajmining o'sishi sohaning jozibadorligi va barqaror rivojlanish istiqbolini ta'minlamoqda. Mahalliy xomashyo va materiallardan foydalanish importga qaramlikni kamaytirib, tannarxni pasaytirishga xizmat qilmoqda. Energiya tejamkor texnologiyalar joriy etilishi ekologik barqarorlik va ekspluatatsiya xarajatlarining kamayishiga olib kelmoqda. Bu esa viloyatda qurilish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

O'tkazilgan tahlillar natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

- Samarqand viloyatida qurilish sohasi barqaror rivojlanish bosqichida bo'lib, uning iqtisodiyotdagi ulushi yil sayin ortib bormoqda.
- turar-joy qurilishi hajmining oshishi aholining uy-joyga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qilmoqda.

- qurilish sohasiga jalb qilinayotgan investitsiyalar, xususan, xorijiy investitsiyalar, sohaning modernizatsiyalashuvi va sifatini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

- qurilish materiallari ishlab chiqarishning rivojlanishi hududning sanoat salohiyatini mustahkamlab, qurilish jarayonlarining samaradorligini oshirmoqda.

Amalga oshirilayotgan islohotlar va investitsiya loyihalari Samarqand viloyatida qurilish sohasining uzoq muddatli hamda barqaror rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar Samarqand viloyatida qurilish sohasining so'nggi yillarda barqaror va izchil rivojlanib borayotganini ko'rsatdi. Qurilish ishlari hajmining ortishi, turar-joy qurilishining faollashuvi hamda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasining kengayishi hudud iqtisodiyotining rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, qurilish sohasiga jalb qilinayotgan investitsiyalar, xususan, xorijiy kapitalning ulushi oshishi, sohada texnologik yangilanish va zamonaviy boshqaruv usullarini tatbiq etish imkoniyatlarini yaratmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida Samarqand viloyatida qurilish sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha quyidagi amaliy tavsiyalar taklif etiladi:

- qurilish loyihalarini rejalashtirish va boshqarishda BIM (Building Information Modeling) hamda raqamli monitoring tizimlaridan kengroq foydalanish tavsiya etiladi. Bu qurilish jarayonlarining shaffofligini oshirishga va xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi.

- qurilish sohasida zamonaviy texnologiyalarni chuqur biladigan muhandis va mutaxassislar tayyorlash maqsadida oliy ta'lim muassasalari hamda ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-noyabr PF-5577-son "Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-4060063>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-fevral PQ-4586-sonli "Qurilish-montaj ishlari sifatini tubdan yaxshilash va qurilishni nazorat qilish tizimini takomillashtirish choralari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-4726130>

3. Деминг Э. Менеджмент нового времени: Простые механизмы, ведущие к росту, инновациям и доминированию на рынке. - М.: Альпина Паблишер, 2019. - 192 с.;

4. Монфред Ю.Б. Качество продукции строительного производства (основные положения) - Москва: [б. и.], 1976. - 80 л.;

5. Davletov I.X. Qurilish iqtisodiyoti. T.: "Ihod-Press" nashriyoti, 2019-yil, - 256 bet.

6. Hojiahmedov G'., Yaxyayeva I., Umarova M., Usmonov A. Sifat menejmenti. Darslik. Toshkent-2012. 204 b.

7. J.X. Kambarov, Sh.R. Ruziev, B.F. Xursanaliyev. Sifat menejmenti. O'quv

qo‘llanma. Toshkent-2022. 441 b.

8. M. Miraxmedov, N.Bozorboyev E. Shomirzayev. “Qurilish majmuasini tashkil etish va menejment” O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2013 y. 251 b.

9. M.M. Miraxmedov, X.I. Yusupov, I.M. Maxamataliyev, A.T. Ilyasov, A.M. Raximov, I.N. Salimova, L.S. Yusupova, X.T. Buriyev. Qurilishni tashkil etish va rejalashtirish. Toshkent - 2022 yil. 608 b.

10. B.K. Abdusamatov. Qurilishni tashkil etish va rejalashtirish. Darslik. Toshkent - 2024 yil. 259 b.

11. M.M. Toshpo‘latov, Q.A.Sharipov, N.Q.Yo‘ldoshev. Sifat menejmenti (Darslik). -T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021,-424 b.

12. Rahimova M.R., Ishmuxamedov A.E. Mintaqaviy iqtisodiyot. Lotin alifbosida darslik. T.TDIU, 2010. 335 bet.

13. Yakubov I.O., Islomov A.A., Sunnatov M.N. Mintaqaviy iqtisodiyot: Darslik. - T.:2019.-228 b.

14. Буриев Х. Т., И. А. Усманов. Повышение качества строительства в Республике Узбекистан. - Россия: тенденции и перспективы развития 17-1 (2022): 363-371.

15. Буриев Х.Т., Усманов И.А. “A development strategy for the construction industry in Uzbekistan: organizational aspects of implementation”. -Недвижимость: экономика, управление 4 (2021): 70-74.

16. Джабриев, А. Н., Х. Т. Буриев. “Пути внедрения систем менеджмента качества”. Экономика и финансы (Узбекистан) 1-2 (2010): 25-29.

17. Buriyev, X., I. Usmanov. “Qurilish sohasida sifatni uzluksiz oshirishning uch bosqichli modeli”. Development issues of innovative economy in the agricultural sector (2021): 198.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**